



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 14-yanvar

20-11-0-Q/26

Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-noyabrdagi “Qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to‘g‘risida”gi PF-231-sonli Farmoni ijrosi haqida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-noyabrdagi “Qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to‘g‘risida”gi PF-231-sonli Farmonining ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-noyabrdagi “Qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to‘g‘risida”gi PF-231-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining amalda o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgan hujjatlari 1-ilovaga;

ayrim qonunchilik hujjatlaridagi amalga oshirish mexanizmlari bilan ta‘minlanmagan normalar va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga;

qonunchilik hujjatlaridagi kollizion normalarni bartaraf etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 3-ilovaga;

ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 4-ilovaga;

tadbirkorlik va boshqa sohalaridagi ayrim majburiy talablarni qisqartirish, tartibga solishni soddalashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining tegishli qarorlari ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat boshqarmalari va idoralari, tuman (shahar)lar hokimliklari o‘zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ubaydullayev zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



X. Bozarov

Farg‘ona viloyati hokimining
2026-yil 14-yanvardagi
20-11-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Viloyat hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof etilayotgan ayrim
qarorlari ro‘yxati**

1. Viloyat hokimining 2007-yil 9-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-726-son qarori ijrosi haqida”gi 281-sonli qarori.

2. Viloyat hokimining 2005-yil 15-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 12-avgustdagi “2005-yil hosili paxta xom ashyosini o‘z vaqtida yig‘ib-terib olishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-157-son-sonli qarori ijrosi haqida”gi 241-sonli qarori.

3. Viloyat hokimining 1996-yil 4-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 18-martdagi “Ish haqi, pensiyalar va stipendiyalarning miqdorlarini oshirish to‘g‘risida”gi PF-1408-sonli Farmoni ijrosi xaqida”gi 67-sonli qarori.

4. Viloyat hokimining 2005-yil 13-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-martdagi “Ekinlarni payhon qilishga qarshi kurash choralari kuchaytirish to‘g‘risida”gi PQ-22-sonli qarori ijrosi xaqida”gi 99-sonli qarori.

5. Viloyat hokimining 2005-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 31-maydagi “2005-yilgi boshqali don ekinlari hosilidan bo‘shagan yerlarni shudgorlashni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-89-son qarori ijrosi xaqida”gi 179-sonli qarori.

6. Viloyat hokimining 2005-yil 6-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-maydagi “Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini 2005/2006-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-85-son qarori ijrosi xaqida”gi 182-sonli qarori.

7. Viloyat hokimining 2005-yil 6-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-maydagi “Respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini 2005/2006-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-85-son qarori ijrosi xaqida”gi 182-sonli qarori.

8. Viloyat hokimining 2005-yil 31-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 25-oktyabrdagi “2006-yil hosili uchun shudgorlash ishlarini o‘tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-208-sonli qarori ijrosi xaqidagi” 309-sonli qarori.

9. Viloyat hokimining 2006-yil 1-fevraldagi “O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining 2006-yil 31-yanvardagi “2006-yilda paxta yetishtirishning prognoz hajmlari va g‘o‘zani navlar bo‘yicha joylashtirish to‘g‘risida”gi PQ-271-son qarori ijrosi xaqida”gi 25-sonli qarori.

10. Viloyat hokimining 2006-yil 1-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-yanvardagi “2006-yilda paxta yetishtirishning prognoz hajmlari va g‘o‘zani navlar bo‘yicha joylashtirish to‘g‘risida”gi PQ-271-son qarori ijrosi xaqida”gi 25-sonli qarori.

11. Viloyat hokimining 2007-yil 6-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-martdagi “Qimor o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-608-son qarori ijrosi xaqida”gi 116-sonli qarori.

12. Viloyat hokimining 2012-yil 9-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 14-yanvardagi “2012-yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joylarni qurish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1687-son qarori ijrosi xaqida”gi 230-sonli qarori.

13. Viloyat hokimining 2009-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 20-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi byudjetini hamda 2009-yilda bolalar sporti obyektlari, suzish havzalari va musiqa hamda san’at maktablarini qurish va kapital rekonstruksiya qilishning manzilli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-1042-son qarori ijrosi xaqidagi”gi 21-sonli qarori.

14. Viloyat hokimining 2009-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 29-yanvardagi “Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1051-son qarori ijrosi xaqida”gi 24-sonli qarori.

15. Viloyat hokimining 2009-yil 2-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 19-iyundagi “Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni rag‘batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1134-son qarori ijrosi xaqida”gi 131-sonli qarori.

16. Viloyat hokimining 2009-yil 19-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 14-avgustdagi “2009-yilda g‘o‘zani defoliatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1174-son qarori ijrosi xaqida”gi 164-sonli qarori.

17. Viloyat hokimining 2011-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-maydagi “Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1529-son qarori ijrosi xaqida”gi 101-sonli qarori.

18. Viloyat hokimining 2011-yil 17-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 15-avgustdagi “2011-yilda g‘o‘zani defoliatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1598-son qarori ijrosi xaqidagi”gi 155-sonli qarori.

19. Viloyat hokimining 2011-yil 29-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 22-sentyabrdagi “2012-yilda akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda umumta’lim maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash dasturining asosiy parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-1620-son qarori ijrosi xaqidagi”gi 182-sonli qarori.

20. Viloyat hokimining 2011-yil 17-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 12-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatlarini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida”gi PQ-1684-sonli qarori ijrosi xaqidagi”gi 12-sonli qarori.

21. Viloyat hokimining 2012-yil 20-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 14-yanvardagi “2012-yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joylarni qurish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1687-son qarori ijrosi xaqida”gi 15-sonli qarori.

22. Viloyat hokimining 2012-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-fevraldagi “2012-yilda g‘o‘zani navlar bo‘yicha joylashtirish va paxta yetishtirishning prognoz hajmlari to‘g‘risida”gi PQ-1713-son qarori ijrosi xaqida”gi 50-sonli qarori.

23. Viloyat hokimining 2012-yil 18-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 14-avgustdagi “2012-yilda g‘o‘zani defoliatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1804-sonli qarori ijrosi xaqida”gi 179-sonli qarori.

24. Viloyat hokimining 2012-yil 17-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 12-sentyabrdagi “2013-yil hosili uchun kuzgi boshqoli don

ekinlarini ekish, navlarni joylashtirish va xarid qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1818-sonli qarori ijrosi xaqida"gi 197-sonli qarori.